

TARIXIY MANBA VA ADABIYOTLARDA QO'NG'IROTLAR ETNIK TARIXINING YORITILISHI

Normamatov Maqsud Jonuzoq o'g'li

Kasbi tumani 5-umumta'lim maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada qo'ng'irotlar subetnosining etnik tarixi, ularning Markaziy Osiyo hududlaridagi shakllanish jarayoni, tarixiy manbalarda va etnografik adabiyotlarda yoritilishi ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qo'ng'irotlarning etnik ildizlari, ularning o'zbek xalqi tarkibidagi o'rni, janubiy hududlar ijtimoiy hayotida tutgan mavqei hamda etnologik o'ziga xosliklari tarixshunoslik manbalari asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar qo'ng'irotlar, subetnos, tarixshunoslik, etnogenez, urug'-qabila tizimi, Surxon-Sherobod vohasi.

Insoniyat tarixi taraqqiyoti davomida etnik jarayonlar, xalqlarning shakllanishi va ularning o'zaro madaniy aloqalari har doim ilmiy izlanishlarning dolzarb mavzusi bo'lib kelgan. Bu jarayonlar nafaqat xalqlarning tarixiy taqdirini, balki ularning ijtimoiy tuzilmalari, dunyoqarashi, turmush tarzi va madaniy o'ziga xosligini belgilab beradi. Xalqlarning kelib chiqish tarixini o'rganishda tarixiy haqiqatni xolis talqin qilish, mavjud manbalarni ilmiy tahlil asosida baholash, voqealarga biryoqlama yondashuvlardan qochish muhim hisoblanadi. Chunki etnos tarixi ko'pincha siyosiy manfaatlar, mafkuraviy talqinlar yoki mahalliy tarixni ulug'lash kabi omillar ta'sirida noto'g'ri yoki yuzaki yoritilgan hollar ham uchrab turadi.

Shu bois etnik tarixni tadqiq etishda tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar, yozma yodgorliklar, genealogik ma'lumotlar, shuningdek, xalq og'zaki ijodi va

etnografik kuzatuvlar o'zaro solishtirma asosda o'rganilishi talab etiladi. Etnogenez jarayonlari ko'p bosqichli bo'lib, u turli davrlarda yuz bergan migratsiya, iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar, mahalliy xalqlar bilan madaniy aloqalar, siyosiy birlashuvlar va dinning ta'siri bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek xalqining etnik tarkibi ham murakkab va ko'p qatlamli tarixiy jarayonlar mahsuli sifatida shakllangan. O'zbeklar tarkibidagi subetnoslar — qarluq, turk, qipchoq, chig'atoy, qo'ng'iro't kabi etnik guruhlar uzoq vaqt davomida o'zaro madaniy hamkorlik va uyg'unlashuv natijasida yagona xalq sifatida birlashgan. Ayniqsa, qo'ng'iro'tlarning etnik tarixi alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi, chunki ular Markaziy Osiyo tarixiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, o'z urug' tizimi, til lahjasi, ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarini saqlab kelgan yirik subetnoslardan biridir.

Qo'ng'iro'tlarning kelib chiqishi, ularning Movarounnahr va Dashti Qipchoq hududlaridagi etnik shakllanish bosqichlari, janubiy vohalardagi (Surxon-Sherobod, Qashqadaryo, Xorazm) ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi mavqei, shuningdek, ularning antropologik va lingvistik xususiyatlarini o'rganish o'zbek xalqining umumiy etnik tarixini chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, qo'ng'iro'tlar etnik tarixi nafaqat tarixiy o'tmishning bir bo'lagi, balki bugungi kunda ham madaniy xotira, o'zlikni anglash va milliy birlikning muhim tarkibiy qismidir.

Qo'ng'iro'tlar haqida ilk yozma ma'lumotlar o'rta asr tarixiy asarlarida uchraydi. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temurning siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida qo'ng'iro't urug'i bilan sulolaviy

aloqalarni mustahkamlashga intilgani qayd etiladi¹. Bu esa qo'ng'irotlarning XIV–XV asrlarga kelib Movarounnahr siyosiy hayotida sezilarli mavqega ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Mirzo Ulug'bekning “To'rt ulus tarixi” asarida Chingizxon nasabida qo'ng'irot urug'iga mansub ayollar bo'lganligi alohida ta'kidlanadi², bu esa qo'ng'irotlarning mo'g'ul imperiyasi siyosiy strukturasi ham muhim o'rin tutganidan dalolat beradi. Shuningdek, Alisher Navoiy o'z she'riy va tarixiy asarlarida qo'ng'irotlarni turkiy urug'lar qatorida e'tirof etadi³. Bu ma'lumotlar qo'ng'irotlarning XV asrdayoq siyosiy va etnik jarayonlarda faol ishtirok etgan yirik elat sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

Qo'ng'irotlarning XV–XVII asrlardagi etnik tarixi Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnomayi shohiy”, Mahmud ibn Valiyning “Bahr al-asror”, hamda Abulg'oz Bahodirxonning “Shajarayi turk va mo'g'ul” va “Shajarayi tarokima” asarlarida keng yoritilgan⁴. Ushbu manbalarda qo'ng'irotlar Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda Shayboniylar bilan ko'chib kelgan va o'zbek xalqi etnik tarkibida yirik subetnos sifatida shakllangan guruhlardan biri sifatida talqin qilinadi.

Etnolog K. Shoniyozov qo'ng'irotlarni o'zbek xalqining yirik va mustaqil etnografik guruhlaridan biri sifatida baholaydi. Unga ko'ra, qo'ng'irotlar o'z til lahjasi, xo'jalik faoliyati, turmush tarzi va marosim madaniyatida o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan. Q. Najimov XX asr o'rtalarida Surxon-Sherobod vohasida

¹ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.

² Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent, 1994. – B. 78.

³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 6-tom. – Toshkent, 1998. – B. 57.

⁴ Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk va mo'g'ul; Shajarayi tarokima.

olib borgan antropologik tadqiqotlarida qo'ng'irotlarda mongoloid komponentning sezilarli darajada saqlanganligini aniqlagan⁵.

B.X. Karmisheva esa janubiy vohalarda yashagan etnik guruhlar, jumladan qo'ng'irotlarning mahalliy dehqonchilik va chorvachilik an'analari bilan uyg'un holda rivojlanganligini ta'kidlaydi. Bu esa qo'ng'irotlar uzoq davr davomida mahalliy etno-madaniy muhitga moslashganligini ko'rsatadi.

Qo'ng'irotlarda uzoq vaqt davomida urug'-qabila boshqaruv tizimi saqlangan. Urug' oqsoqollari yaylovlarni taqsimlash, ko'chish yo'nalishlarini belgilash, to'y va dafn marosimlarini boshqarish, hamda ichki nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynagan. Oqsoqollik instituti jamoa birdamligi, o'zaro hurmat, avlod xotirasi va etnik o'zlikni saqlashning asosiy omillaridan biri sifatida xizmat qilgan.

Qo'ng'irotlar o'zbek xalqining etnik tarkibida muhim o'rin tutadigan yirik subetnoslardan biri bo'lib, ularning shakllanish jarayoni ko'p bosqichli tarixiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. O'rta asrlardan boshlab yozma manbalar va tarixiy hujjatlarda qo'ng'irotlar nafaqat etnik birlik, balki siyosiy-ijtimoiy hayotda faol qatnashgan elat sifatida qayd etilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug'bek, Abulg'azi Bahodirxon, Hofiz Tanish Buxoriy kabi tarixchilar asarlarida qo'ng'irotlar turkiy-mo'g'ul qavmlar tizimidagi alohida o'rni bilan tilga olinadi.

Tarixshunoslik va etnografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qo'ng'irotlarning o'ziga xos etnik xususiyatlari — til lahjasi, turmush tarzi, xo'jalik faoliyati, ijtimoiy tashkil topishi — mahalliy aholi madaniyati bilan uyg'unlashgan holda saqlanib qolgan. Surxon-Sherobod, Qashqadaryo va Xorazm vohalarida

⁵ Najimov K. Antropologicheskiy sostav naseleniya Surxan-Darinskoy oblasti. — Toshkent, 1958. — S. 153.

qo'ng'irotlarning keng tarqalishi esa ularning uzoq davomli migratsiya va etnomadaniy aloqalar natijasida shakllanganligini tasdiqlaydi.

Qo'ng'irot urug'-qabila tizimida oqsoqollik, avlod xotirasini saqlash, marosim madaniyati kabi ijtimoiy institutlar jamoa birdamligini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Bunday ijtimoiy mexanizmlar etnik o'zlikni saqlab qolish va avlodlararo ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Umuman olganda, qo'ng'irotlarning etnik tarixi o'zbek xalqining shakllanish jarayonini chuqurroq anglash, etnoslararo munosabatlar, madaniy integratsiya, tarixiy meros va milliy o'zlik masalalarini ilmiy asosda tadqiq etishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot nafaqat o'tmishni yoritadi, balki bugungi kunda jamiyatimizda milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. — Toshkent: Fan, 1998.
2. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. — Toshkent: Fan, 1994. — 78 b.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. 6-tom. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. — 57 b.
4. Abulg'azi Bahodirxon. Shajarayi turk va mo'g'ul. — Toshkent: Fan, nashr yili ko'rsatilmagan.
5. Abulg'azi Bahodirxon. Shajarayi tarokima. — Toshkent: Fan, nashr yili ko'rsatilmagan.

6. Najimov K. Antropologicheskiy sostav naseleniya Surxan-Darinskoy oblasti. — Toshkent: SAGA, 1958. — 153 s.